IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 23 Issue 01 AVGUST 2026

PEDAGOGIK JAMOADA PSIXOLOGIK MUHITNI YAXSHILASH

Mardonova Muattar Kamol qizi
Denov tumani 19 maktab
https://doi.org/10.5281/zenodo.21815567

Annotatsiya: Maqolada pedagogik jamoada psixologik muhitni yaxshilashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik jamoa ichidagi psixologik xavfsizlik, konstruktiv muloqot, demokratik boshqaruv va hamkorlik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, maqolada pedagogik jamoada stressni kamaytirish, ishga qoniqish va o‘quvchilarning ta’lim natijalariga ta’sir ko‘rsatish yo‘llari ham ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik jamoada ijobiy psixologik muhit yaratishning samarali strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.
Kalit so‘zlar: Pedagogik jamoa, psixologik muhit, psixologik xavfsizlik, muloqot madaniyati, hamkorlik, pedagogik samaradorlik, stressni boshqarish.

KIRISH

Pedagogik jamoa - bu maktab, litsey yoki boshqa ta’lim muassasasidagi pedagoglar, rahbarlar va xodimlarning birligi bo‘lib, ularning ijtimoiy va psixologik muhitini ifodalaydi. Pedagogik jamoaning psixologik iqlimi o‘qituvchilarning motivatsiyasi, stress darajasi, ijodiy faoliyati va pedagogik muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi. Shuningdek, pedagogik jamoaning psixologik muhitini baholash orqali jamoa ichidagi ijobiy va salbiy munosabatlar aniqlanadi, pedagoglarning o‘zaro hamkorligi va konstruktiv muloqoti tahlil qilinadi, jamoaning ijtimoiy- psixologik farovonligi va pedagogik samaradorlik darajasi aniqlanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik jamoada ijobiy psixologik muhit mavjud bo‘lsa, pedagoglar o‘z ishlariga ko‘proq jalb qilinadi, stress darajasi kamayadi va innovatsion yondashuvlar ko‘payadi[1]. Chunki har bir pedagog o‘z kasbi va hamkasblari o‘rtasidagi hurmat, ijobiy munosabat bilangina rivojlana oladi. Pedagog individual rivojlansa, jamoada ham rivojlanish bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Psixologik muhit — jamoa a’zolarining hissiy va ijtimoiy tajribalari majmuasi. Schein psixologik muhitni jamoaning qadriyatlari, ish tartibi, kommunikatsiya uslublari va ijtimoiy rollari orqali tavsiflaydi[2]. Bu tushuncha pedagogik jamoa uchun ijobiy va salbiy psixologik elementlarni aniqlash imkonini beradi. Pedagogik jamoaning psixologik muhitini tahlil qilganda, uning tarkibiy qismlari quyidagicha:

- emotsional qo‘llab- quvvatlash — jamoa a’zolari bir- birini rag‘batlantiradi va stressni kamaytiradi;
- ishonch va ochiqlik — fikr bildirish va konstruktiv tanqidga bo‘lgan munosabat;
- hamkorlik va muloqot madaniyati — tajriba almashish, maslahat va seminarlar orqali professional rivojlanish[3].

Pedagogik jamoada psixologik muhit nafaqat pedagoglarning ish samaradorligini belgilovchi omil, balki butun ta’lim jarayoni sifatiga bevosita ta’sir qiluvchi muhim jihat hisoblanadi. Psixologik muhit o‘z ichiga pedagoglar o‘rtasidagi ishonch, qo‘llab- quvvatlash, konstruktiv muloqot va jamoaning ijtimoiy-iqlimini oladi. Agar pedagoglar o‘z fikrlarini ochiq

[1] Khodzhimatova, N.T. *Pedagogik jamoada psixologik muhit.* Tadqiqotlar, 2024.
[2] Schein, E.H. *Organizational Culture and Leadership.* – San Francisco: Jossey- Bass, 2010.
[3] Xie, J., Abdul Aziz, N.A. *Effects of democratic leadership on teacher climate.* Sch. Leadersh. Rev., 2023.

va erkin bildira olsa, xatolikdan qo‘rqmasdan yangi yondashuvlarni sinab ko‘rsa, jamoa ichidagi ijodiy va innovatsion faoliyat sezilarli darajada ortadi. Shu bilan birga, pedagoglarning ishga bo‘lgan qoniqishi va motivatsiyasi oshadi, bu esa o‘quvchilarning ta’lim natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Jamoaviy muloqot va hamkorlik psixologik muhitni shakllantirishning eng muhim komponentlaridan biridir. Pedagoglar bir-birlari bilan tajriba almashish, maslahat berish va konstruktiv tanqidni qabul qilish orqali o‘zaro ishonchni mustahkamlashadi. Hamkorlikning yuqori darajasi pedagoglarning stressini kamaytiradi, ishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va jamoaning umumiy farovonligini yaxshilaydi. Shu tarzda pedagogik jamoa a’zolari o‘zaro qo‘llab-quvvatlash hissini kuchaytiradi, birgalikda qaror qabul qilish va muammolarni hal qilishga tayyor bo‘ladi. Shuningdek, rahbarning boshqaruv uslubi psixologik muhitni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Demokratik boshqaruv pedagoglarni qaror qabul qilish jarayoniga jalb qiladi, ularning fikrini hisobga oladi va ishdagi mustaqillik darajasini oshiradi. Bu esa pedagoglar orasida o‘zini qadrlash va ishga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytiradi. Agar pedagoglar o‘z fikrlari va g‘oyalari jamoa tomonidan qadrlansa, ular jamoaviy maqsadlar uchun faol ishlashga tayyor bo‘ladi, bu esa ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Psixologik muhit va pedagogik samaradorlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ham muhim ahamiyatga ega. Ijobiy psixologik muhit pedagoglarning ishga bo‘lgan qoniqishini oshiradi, bu esa ularning ijodiy va innovatsion yondashuvlarini rivojlantiradi. Natijada, o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi ishtiroki oshadi, ta’lim sifati yaxshilanadi va o‘quvchilar o‘z bilimlarini samarali egallashga imkon topadi. Shu bilan birga, pedagogik jamoa a’zolari orasida stress kamayadi, jamoaviy ishlar muvofiqlashtiriladi va pedagoglar o‘z ishlarida doimiy professional rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tahliliy jihatdan qaraganda, pedagogik jamoada psixologik muhitni yaxshilashning samarali usullari quyidagilardan iborat: pedagoglar o‘rtasida ishonch va qo‘llab-quvvatlashni rivojlantirish, konstruktiv muloqotni rag‘batlantirish, pedagoglarni qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish va ularning ishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish. Bu strategiyalar jamoaning ijtimoiy-iqlimini mustahkamlash bilan birga, ta’lim jarayonining sifatini va pedagoglarning professional samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik jamoada psixologik muhitni ijobiy shakllantirish nafaqat individual pedagoglarning farovonligini ta’minlaydi, balki butun ta’lim jarayonini sifatli, samarali va barqaror qilish imkonini beradi. Psixologik muhitning ijobiy bo‘lishi, pedagoglarning o‘zaro hamkorligi, konstruktiv muloqoti va demokratik boshqaruv orqali rivojlanadi, bu esa jamoaning umumiy samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot pedagogik jamoada psixologik muhitni shakllantirish va uning pedagogik samaradorlikka ta’sirini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, nazariy va empirik manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida pedagogik jamoaning psixologik muhitini aniqlash, uning tarkibiy elementlarini baholash va pedagogik samaradorlik bilan bog‘liqligini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi.

Psixologik muhit tushunchasini Schein jamoaning qadriyatlari, ish tartibi va kommunikatsiya uslublari bilan izohlagan[4]. Shu nuqtai nazardan pedagogik jamoaning ijtimoiy-psixologik holati faqat tashkiliy tuzilma bilan emas, balki a’zolar orasidagi emosional qo‘llab-quvvatlash, ishonch va konstruktiv muloqot bilan belgilanadi. Hammar Chiriac va Forsberg tadqiqotida pedagogik jamoada ijobiy psixologik muhitni shakllantirishda aynan ushbu

[4] Schein, E.H. *Organizational Culture and Leadership.* – San Francisco: Jossey-Bass, 2010.

omillar asosiy rol o‘ynashi aniqlangan[5]. Bu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagoglar o‘zaro ishonch va qo‘llab-quvvatlash his qilgan jamoalarda ko‘proq samarali ishlaydi va innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga tayyor bo‘ladi.

Psixologik xavfsizlik masalasida Edmondson jamoaning ichki iqlimi pedagoglarning xatoliklardan qo‘rqmasdan fikr bildirishini va yangi yondashuvlarni sinab ko‘rish imkoniyatini yaratishini ta’kidlaydi[6]. Bu esa pedagogik jamoaning ijodiy va innovatsion faoliyatini oshirishga xizmat qiladi. Xie va Aziz tadqiqotida demokratik boshqaruv sharoitidagi pedagogik jamoalarda psixologik xavfsizlik yuqori bo‘lganligi, pedagoglarning motivatsiyasi va ishga qoniqishi sezilarli darajada oshgani aniqlangan[7]. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, psixologik xavfsizlik faqat pedagoglar orasidagi munosabatga bog‘liq bo‘lib qolmay, balki rahbarlarning boshqaruv uslubiga ham bevosita bog‘liqdir.

Shuningdek, jamoaviy muloqot va hamkorlik pedagogik muhitning muhim komponentidir. Lee va boshqalar tadqiqotida samarali kommunikatsiya pedagoglar o‘rtasida konstruktiv tanqid va tajriba almashishni kuchaytiradi[8]. Hamkorlik orqali pedagoglar stressni kamaytiradi, ijodiy yondashuvni rivojlantiradi va jamoaning ijtimoiy-psixologik farovonligini oshiradi. Bu esa pedagogik samaradorlik va o‘quvchilarning o‘quv natijalariga bevosita ta’sir qiladi. Sullivan va Sarkar tadqiqotida pedagogik jamoaning ijobiy psixologik muhitida o‘qituvchilar ko‘proq jalb qilinishi, natijada o‘quvchilarning o‘quv natijalari yaxshilanishi kuzatilgan[9].

Tahlil natijalaridan ko‘rinib turibdiki, pedagogik jamoada psixologik muhitni shakllantirishda eng samarali yo‘llar hamkorlik, ijobiy muloqot, trajriba almashishda ko‘rinadi.

TAJRIBA

Ushbu tadqiqot doirasida pedagogik jamoada psixologik muhitni yaxshilashga qaratilgan kommunikativ-reflektiv metod asosida tajriba ishlari amalga oshiramiz.. Tanlangan metod pedagoglar o‘rtasida ochiq muloqot, o‘zaro fikr almashish va refleksiya orqali jamoaviy psixologik muhitni mustahkamlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, u jamoaning ichki iqlimini tabiiy sharoitda yaxshilash imkonini beradi.

Tajriba maktab ta’lim muassasasining pedagogik jamoasida o‘tkazildi. Tajribada jami 24 nafar pedagog ishtirok etdi. Tajriba jarayoni uch bosqichda tashkil etildi: boshlang‘ich diagnostika, metodni qo‘llash bosqichi va yakuniy baholash bosqichi.

Boshlang‘ich bosqichda pedagogik jamoaning psixologik muhiti quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholandi: pedagoglar o‘rtasidagi muloqot sifati, o‘zaro ishonch darajasi, jamoaviy hamkorlik va ishga bo‘lgan qoniqish. Ushbu bosqichda pedagoglar jamoaviy muhokamalarda kam faol ishtirok etishi, ayrim hollarda fikr bildirishdan tortinishi va muloqotda rasmiylik ustunligi kuzatildi.

Ikkinchi bosqichda kommunikativ-reflektiv metod asosida maxsus mashg‘ulotlar tashkil etildi. Mashg‘ulotlar haftasiga bir marta, jami to‘rt hafta davomida o‘tkazildi. Har bir mashg‘ulotda pedagoglar kichik guruhlarda ishladi, pedagogik vaziyatlar muhokama qilindi, o‘z tajribalarini baham ko‘rish va o‘zaro fikr bildirishga undovchi topshiriqlar bajarildi. Mashg‘ulotlar jarayonida har bir pedagogning fikri tinglandi, tanqid konstruktiv va hurmat asosida olib borildi, reflektiv savollar orqali ishtirokchilarning o‘z faoliyatini baholashi ta’minlandi.

---

[5] Hammar Chiriac, E., Forsberg, C., Thornberg, R. *Teacher teams: Creating a positive school climate.* Soc. Psychol. Educ., 2024.
[6] Edmondson, A.C. *Psychological safety and learning behavior in work teams.* Adm. Sci. Q., 1999.
[7] Xie, J., Abdul Aziz, N.A. *Effects of democratic leadership on teacher climate.* Sch. Leadersh. Rev., 2023.
[8] Lee, M., Kim, J., Park, S. *Collaborative communication and teacher climate.* Int. J. Educ. Res., 2021.
[9] Sullivan, K., Sarkar, R. *School climate and student achievement.* Educ. Res. Int., 2022.

Uchinchi bosqichda tajriba natijalari tahlil qilindi. Pedagogik jamoaning psixologik muhitida yuz bergan o‘zgarishlar avvalgi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslandi.

NATIJALAR

Tajriba yakunida pedagogik jamoada bir qator ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Pedagoglar o‘rtasida muloqot sifati yaxshilandi, ochiq fikr bildirishga bo‘lgan ishonch ortdi va jamoaviy muhokamalarda faol ishtirok ko‘paydi. Pedagoglar bir-birining fikrini tinglash va hurmat qilishga ko‘proq e’tibor bera boshladi, bu esa jamoada psixologik xavfsizlik hissini kuchaytirdi.

Shuningdek, pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlik darajasi oshdi. Mashg‘ulotlardan so‘ng pedagoglar dars jarayonida ham o‘zaro maslahatlashish, tajriba almashish va birgalikda muammolarni hal qilishga ko‘proq intila boshladi. Bu holat pedagoglarning ishga bo‘lgan qoniqishini oshirib, jamoaning umumiy ijtimoiy-psixologik muhitini yaxshilashga xizmat qildi.

MUHOKAMA

O‘tkazilgan tajriba natijalari pedagogik jamoada psixologik muhitni yaxshilash jarayoni tasodifiy emas, balki maqsadli va tizimli metodlar asosida amalga oshirilganda samarali bo‘lishini ko‘rsatdi. Kommunikativ-reflektiv metodni qo‘llash jarayonida pedagoglar o‘rtasidagi munosabatlarda kuzatilgan ijobiy o‘zgarishlar jamoaviy psixologik muhitning bosh omillari aynan ochiq muloqot, o‘zaro ishonch va refleksiyaga bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Tajribaning dastlabki bosqichida pedagoglarning fikr bildirishda ehtiyotkorligi, rasmiy muloqotning ustunligi va jamoaviy muhokamalarda passivlik psixologik xavfsizlik yetarli darajada shakllanmaganidan dalolat beradi. Kommunikativ-reflektiv mashg‘ulotlar davomida esa pedagoglar asta-sekin o‘z fikrlarini ochiq ifodalashga, shaxsiy tajribalarini baham ko‘rishga va boshqalarning qarashlarini hurmat bilan qabul qilishga o‘rgandi. Bu holat psixologik muhitni yaxshilashda refleksiya va muloqot muhim mexanizm ekanini ko‘rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik jamoada psixologik muhitni ijobiy shakllantirish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagoglarning o‘zaro ishonchi, konstruktiv muloqot va hamkorligi, shuningdek, demokratik boshqaruv orqali pedagoglarni qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilish, jamoaning ijtimoiy-iqlimini sezilarli darajada yaxshilaydi. Bu esa pedagoglarning ishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi, ijodiy yondashuvlarni rag‘batlantiradi va stress darajasini kamaytiradi. Natijada, pedagogik jamoa samarali faoliyat yuritadi va o‘quvchilarning ta’lim natijalari yaxshilanadi.

Pedagogik jamoaning psixologik muhitini shakllantirish bir necha asosiy komponentlarga tayanadi: psixologik xavfsizlikni ta’minlash, konstruktiv muloqot va hamkorlikni rivojlantirish, demokratik boshqaruvni qo‘llash va pedagoglarning professional qoniqishini oshirish. Ushbu komponentlar birgalikda jamoaning ijtimoiy-iqlimini mustahkamlaydi va ta’lim sifatini oshirishda uzviy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Shuningdek, pedagogik jamoada ijobiy psixologik muhitning mavjudligi o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga faol ishtirok etishiga, bilimlarni samarali egallashiga va shaxsiy rivojlanishiga imkon yaratadi. Bu esa ta’lim jarayonini nafaqat sifatli, balki barqaror va samarali qilishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik jamoada psixologik muhitni yaxshilashga qaratilgan strategiyalar amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni ta’lim muassasalarida joriy etish orqali umumiy pedagogik samaradorlik oshirilishi mumkin.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, kommunikativ-reflektiv metod pedagogik jamoada psixologik muhitni yaxshilashda samarali bo‘lib, u pedagoglarning ichki imkoniyatlarini faollashtiradi, o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi va jamoaviy ish samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Edmondson, A.C. *Psychological Safety and Learning Behavior in Work Teams.* Administrative Science Quarterly, 1999.
2. Hammar Chiriac, E., Forsberg, C., Thornberg, R. *Teacher Teams: Creating a Positive School Climate.* Social Psychology of Education, 2024.
3. Lee, M., Kim, J., Park, S. *Collaborative Communication and Teacher Climate.* International Journal of Educational Research, 2021.
4. Schein, E.H. *Organizational Culture and Leadership.* San Francisco: Jossey-Bass, 2010.
5. Sullivan, K., Sarkar, R. *School Climate and Student Achievement.* Education Research International, 2022.
6. Xie, J., Abdul Aziz, N.A. *Effects of Democratic Leadership on Teacher Climate.* School Leadership Review, 2023.